

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**TARIX FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST
TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

TARIX FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi tarix fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, laboratoriya faoliyatini tashkil etish kompetensiyasi, tarix fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Tarix fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq

test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. O'zbekiston tarixi		25 ta
1.1. O'zbekiston tarixining qadimgi davri		
O'zbekiston tarixining qadimgi davri	– qadimgi insonlar yashagan davr, ularning turmush tarzi, diniy e'tiqodlari va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni topish; – O'zbekiston hududida yashagan qadimgi elatlar va ularning davlat tuzilmalarini (shaharlarini), shuningdek, antik madaniyatning O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni aniqlay olish; – Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini aniqlay olish; – mil.avv. I mingyillikda vujudga kelgan yangi dinni aniqlay olish; – davlatlar va hukmdorlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi, ushbu jarayon natijasida ro'y bergan hodisalarni aniqlash, tahlil qilish va baholash; – mil.avv. IV asr – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan davlatlarga doir ma'lumotlarni topish, taqqoslash va umumlashtirish; – sabab-oqibat va jarayonlar ketma-ketligini tushunish.	6
1.2. O'zbekiston tarixining IV–XIII asrlar davri		

O‘zbekiston tarixining IV–XIII asrlar davri	– yer egaligi munosabatlari va ilk o‘rta asrlarda shakllangan ijtimoiy tabaqalarni farqlay olish; – tarixiy hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash; – davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati, madaniy yuksalish jarayonlarini taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish; – ushbu davr hukmdorlari, tarixiy shaxslari, ilm-fan vakillari bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash va tahlil qilish; – muhim tarixiy ma’lumotlarni bilish, farqlash va tahlil qilish;	4
1.3.O‘zbekiston tarixining XIII–XV asrlar davri		
O‘zbekiston tarixining XIII–XV asrlar davri	– hukmdorlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tashqi aloqalariga oid ma’lumotlarni topish; – tarixiy hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilish; – tarixiy shaxslar faoliyati, tarixiy joy nomlari va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash va baholash; – davlatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati, madaniy yuksalish jarayonlarini taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash.	4
1.4.O‘zbekiston tarixining XVI–XIX asrlar davri		
O‘zbekiston tarixining XVI–XIX asrlar davri	– O‘zbekiston hududidagi davlatlarning (Buxoro, Xiva, Qo‘qon) tashkil topishi, rivojlanishi, sulolalar almashinuvi jarayonlarni aniqlay olish; – bu davrda sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni aniqlash va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish; – davlat hukmdorlari va tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ma’lumotlarni topish, ularning faoliyatini aniqlash, tahlil qilish; – har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va xulosalash.	4
1.5.O‘zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 90-yillari		

O‘zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 90-yillari	– O‘zbekiston tarixining murakkab davrida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarni aniqlash; – mazkur davrda yuzaga kelgan siyosiy o‘zgarishlar, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy inqiroz va islohotlar jarayonini aniqlash; – o‘zbek xalqining mustamlakachilarga qarshi qaratilgan xalq harakatlari, ularning yo‘lboshchisiga oid ma’lumotlarni topish va tahlil qilish; – O‘rta Osiyo davlatlarining dastlab podsho Rossiyasiga, keyinchalik Sovet hokimiyati vassaliga aylanishiga olib kelgan siyosiy va iqtisodiy omillarni, bu jarayonning mintqa hayotiga ta’sirini hamda uning uzoq muddatli oqibatlarini baholash; – O‘zbekiston va butun mintaqada olib borilgan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy siyosatning xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini ajrata olish; – tarixiy ma’lumotlarni xronologik ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtira olish; – jadidlar faoliyati, keyinchalik ularning davlat boshqaruvida tutgan o‘rnini aniqlash; – hayotiy vaziyatlarda tarixiy ma’lumotlarni to‘g‘ri ajrata olish.	4
1.6.O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri		
O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri	– O‘zbekiston mustaqillikka erishish jarayonida sodir bo‘lgan voqealarni, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarining rivojlanish jarayonlarini topish; – O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda teng huquqli subyekt sifatida faoliyat olib borishi, xalqaro tashkilotlar, davlatlar bilan har tomonlama aloqalariga doir ma’lumotlarni topish, tahlil qilish; – mamlakatni rivojlantirish yo‘lida barcha sohalarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni aniqlash; – mustaqillik davrida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy va madaniy islohotlarning natijalari va ahamiyatini aniqlash.	3
2. Jahon tarixi		15 ta
2.1. Qadimgi dunyo tarixi		

Qadimgi dunyo tarixi	– qadimgi dunyo tarixida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, sivilizatsiyalar, qadimgi davlatlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar, tarixiy hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish; – tarixiy ma’lumotlarni mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtira olish; – qadimgi xalqlar, hukmdorlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash, tahlil qilish; – antik tarixning vujudga kelishi, ushbu davrda ro‘y bergan voqea-hodisalar, antik madaniyatning O‘rta Osiyoga kirib kelishi, uning ushbu hududga ta’sirini aniqlash.	2
2.2. Jahon tarixining o‘rta asrlar davri (V–XIII asrlar)		
Jahon tarixining o‘rta asrlar davri (V–XIII asrlar)	– V–XIII asrlarda Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika xalqlarining siyosiy tuzumi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy rivojlanishi haqidagi tarixiy ma’lumotlarni topish va ularni farqlay olish; – o‘rta asr davlatlarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini aniqlay olish; – turli mintaqalardagi feodal tuzum, shaharlar rivojini ma’lumotlar asosida aniqlash, tahlil qilish; – o‘rta asr hukmdorlarining ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy, madaniy faoliyatini ajrata olish; – tarixiy ma’lumotlarni mintaqaviy solishtirish xulosalash, sabab va oqibatlarini baholash; – Yevropa, Osiyo, Amerika va Afrika xalqlarining rivojlanishidagi o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, tahlil qilish.	3
2.3. Jahon tarixining o‘rta asrlar davri XIII–XV asrlar		

Jahon tarixining oʻrta asrlar davri XIII–XV asrlar	– XIII–XV asrlarda Yevropa davlatlari, shuningdek Osiyo, Afrika va Amerika xalqlarining boshqaruv tizimi, iqtisodiy faoliyati va madaniy hayoti haqidagi tarixiy maʼlumotlarni topish, farqlay olish; – turli mintaqalardagi davlatlar, siyosiy tuzumi, shaharlar rivoji va ijtimoiy tuzilish farqlarini topish, tahlil qilish; – jahon xalqlari va Oʻrta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlaridagi oʻxshash va farqli tomonlarini tahlil qilish, sabab va oqibatlarini baholash; – tarixiy voqea-hodisalarning sababi, natijasi, ahamiyatini tahlil qilish; – Yevropa qirollari va boshqa mintaqalar hukmdorlarining faoliyatini aniqlash, tahlil qilish.	3
2.4.Jahon tarixining yangi davri (XVI–XX asr boshlari)		
Jahon tarixining yangi davri (XVI-XX asr boshlari)	– Yevropada yangi davr boshlanishi hamda XVI–XX asrlarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi maʼlumotlarni topish, tahlil qilish; – xarita asosida tarixiy maʼlumotlarni aniqlash; – tarixiy maʼlumotlarni bilish, farqlash, tahlil qilish va xronologik ketma-ketlikda toʻgʻri joylashtira olish; – turli mintaqalardagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, davlat rahbarlari bilan bogʻliq maʼlumotlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qilish, oʻzgarishlarni solishtirish, sabab-oqibatlarini baholash.	3
2.5.Jahonning eng yangi tarixi (XX–XXI asrlar)		

Jahonning eng yangi tarixi (XX–XXI asrlar)	– 1918–1945, 1945–1991 va 1991-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrlarga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni topish; – 1918-yildan keyingi tarixiy jarayonlarni siyosiy tizimlar, iqtisodiy model va madaniy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan tarixiy manbalar, xaritalar, statistik ma’lumotlar va vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish. – davlatlarning siyosiy tuzumi, hokimiyat almashinuvi va bu jarayonlar oqibatida sodir bo‘lgan voqealar, global muammolarga oid ma’lumotlarni aniqlash; – muhim tarixiy ma’lumotlarni bilish, farqlash va tahlil qilish; – xarita asosida tarixiy ma’lumotlarni aniqlash; – uch tarixiy bosqichda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘zaro solishtirib, ularning sabab-oqibat bog‘liqligini baholash hamda mazkur jarayonlarning global miqyosdagi ta’sirini aniqlash, tahlil qilish.	4
Jami:		40

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

PEDAGOGIK MAHORAT		10
Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta’lim paradigmalari (an’anaviy - konservativ, ratsionalistik (bixevioristik), fenomenologik (gumanistik), texnokratik va ezoterik)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari(yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, – nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma’ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an’anaviy dars, noan’anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni	10

	rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, faoliyatini monitoring qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to‘g‘ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to‘g‘ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo‘llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o‘qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o‘qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o‘qitish bo‘yicha berilgan ta’limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	
--	--	--

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	22 ta
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	23 ta
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5 ta

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, ishtirokchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. Lex.uz.
4. Sagdullayev A.S., Kostetskiy V.A, Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf). – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2022.
5. Zamonov A., Ismatova N. va b., O‘zbekiston tarixi (7-sinf), – Toshkent: “Sharq”, 2022.
6. Nasrullayev L. va b., Jahon tarixi (7-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2022.
7. Zamonov A., Ismatova N., Aminov B., Jabborova Z., Qudratov Sh., O‘zbekiston tarixi (8-sinf) – Toshkent, 2023.
8. Abdimo‘minov O., Mustafoyev J., Nasrullayev L., Jahon tarixi (8-sinf) – Toshkent, 2024.
9. Ismatova N., Jo‘rayev U., O‘zbekiston tarixi (9-sinf). –Toshkent, 2024.
10. Ergashev Sh., Bobomatov T., Jahon tarixi (9-sinf), – Toshkent, 2024.
11. Tillaboyev S. va b., O‘zbekiston tarixi (10-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2022.
12. Ergashev Sh. va b., Jahon tarixi (10-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2022.
13. Zamonov A., Abdimo‘minov O., Bobojonov I., O‘zbekiston tarixi (11-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2025.
14. Ergashev Sh., Bobomatov T., Abdullayev J. Jahon tarixi (11-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2025.
15. Jo‘rayev N., Zamonov A., O‘zbekiston tarixi (11-sinf). –Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2018.
16. Ergashev Sh., Xodjayev B., Abdullayev J., Jahon tarixi (11-sinf). – Toshkent: “Turon-Istiqlof”, 2018.
17. Sagdullayev A., Kostetskiy V., Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf). (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma), Respublika ta’lim markazi, – Toshkent, 2022.
18. Zamonov A., Ismatova N., Zamonov Z., Jabborova Z., O‘zbekiston tarixi (7-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma), Respublika ta’lim markazi, – Toshkent, 2022.
19. A.Ismailov, J.Mustafoyev, N.Hakimov, L.Nasrullayev, R.Raxmatov, S.Kushbekov., Jahon tarixi (7-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma), Respublika ta’lim markazi, –Toshkent, 2022.

20. A. Zamonov, N. Ismatova, Z. Zamonov, N. Quدراتova., O‘zbekiston tarixi (10-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (xrestomatiya)). Respublika ta’lim markazi, – Toshkent, 2022.
21. Xodjayev B., Abdullayev J., Hakimov N., Jahon tarixi (10-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Respublika ta’lim markazi, – Toshkent, 2022.
22. Asqarov A., Azamat Ziyo, Maqsudov F.A., Pidayev Sh.R., Boboyorov G‘.B., Otaxo‘jayev A.M., Bekmurodov I.I., O‘zbekiston tarixi I qism. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2023.
23. Zamonov A., Abdusodiqov S., O‘zbekiston tarixi II qism. – Toshkent: “Bayoz”, 2024.
24. Zamonov A., O‘zbekiston tarixi III qism. – Toshkent: “Bayoz”, 2023.
25. Semyonov V.F., O‘rta asrlar tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1973.
26. Atlas, xarita (O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixi yozuvsiz xaritasi bilan) 6–11-sinflar O‘zbekiston respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi.

VII. Pedagogik mahorat bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.

